

**O'QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL
ETISH,O'QUVCHILARNING DARS DAN TASHQARI TARBIYAVIY
JARAYONLARDA MA'NAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH**

Jumayeva Zoxidaxon Muhammadjonovna

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedra si o'qituvchisi

@mail:Djumayevazoxida@gmail.com

Norboyeva Gulshan Vahob qizi

Esanova Ro'shana Qurbonazarovna

Denov Tadbirkorlik va Pedagogik instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari

@mail:norboyevag2@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish,O'quvchilarning darsdan tashqari tarbiyaviy jarayonlarda ma'naviy ishlarini tashkil etish bo'yicha qanday chora-tadbirlar qilish kerakligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Sinf dan tashqari ishlar,sport maktablari,to'garaklar,ma'naviy ishlar,shaxs,tarbiya,pedagoglar,harakatli o'yinlar,tarbiyaviy ishlar,sport to'garaklari.

Mamlakatimiz kelajagi uchun sog'lom avlodni tarbiyalash hamda voyaga yetkazishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati juda katta. So'ngi yillarda sport va jismoniy tarbiya yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida" gi Farmonida "bolalarni jismoniy va ma'naviy tarbiyalashning zamonaviy shakl va uslublarini, jinsi va yoshiga qarab bolalarga sport ko'nikmalarini sigdirishning, sport sohasida iqtidorli bolalarni ixtisoslashtirilgan sport maktablari va markazlardagi mashg'ulotlarga tanlab olishning ilmiy asoslangan tizimlarini ishlab chiqishni tashkil etish hamda ularni tadbiiq qilishga ko'maklashishi" lozimligi alohida ta'kidlandi.

Sinf dan va maktabdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinf dan va maktabdan tashqari ishlar da o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi va ular mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi.

Maktab va maktabdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinf va maktabdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun sinfdan va maktabdan tashqari, tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo'lishi lozim:

1) pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro xurmat munosabatlarini shakllanganlikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish;

2) ulg'aygan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e'tiborda tutish zarur.

Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

- a) fan to'garaklari;
- b) mohir qo'llar to'garaklari;
- v) duradgorlik to'garaklari;
- g) sport to'garagi;
- d) badiiy xavaskorlik to'garagi.

Maktab davridan boshlab o'quvchilarning ma'naviy, jismoniy va funktsional shakllanishida harakatli o'yinlarining o'rni beqiyosdir. Standart mazmundagi vazifa, ko'rsatma yoki mehnat va sport mashqlarini bajarish kishini tez toliqtiradi. Lekin, shunday harakatlarni milliy o'yinlari asosida, ijro etish odamning ruhiyatiga ijobiy ta'sir etib, charchash muddatini orqaga suradi. SHuning uchun sport mashg'ulotlarida, ayniqsa yosh sportchilarni dastlabki tayyorlashda turli mazmunga xos harakatli o'yinlardan foydalanish alohida amaliy axmiyatga egadir.

Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari vaqtlarda o'tkaziladigan sport mashg'ulotlarida harakatli o'yinlardan foydalanish bolalar jismoniy sifatlarini rivojlantirish va harakat malakalariga o'rgatish samaradorligini oshiradi.

Harakatli o'yinlar o'quvchilar bilan darsdan tashqari vaqtda tarbiyaviy-sog'lomlashtirish ishlarini olib borishda, ayniqsa, kichik va o'rta yoshdagi maktab o'quvchilari orasida katta o'rin egallaydi. Ular tanaffuslarda maktab jismoniy tarbiya jamoasida, maktab bayramlarida, «Salomatlik kunlarida», yig'ilishlarida, ekskursiyaga, sayrga chiqqanda o'tkaziladi. Bundan tashqari, sinflar va maktablar o'rtasida o'yin bo'yicha maxsus musobaqalar tashkil etiladi va o'tkaziladi.

Darsdan tashqari vaqtda o'quvchilar bilan o'tkaziladigan harakatli o'yinlar sog'lomlashtirish vazifasini yechishga yordam berishi kerak. Salomatlik holati bo'yicha 1 va 2 tibbiy guruhlariga kiritilgan, o'quvchilar o'yinni barcha turlari bilan shug'ullanishga qo'yiladi. Yurak bilan kasallangan asab sistemasi buzilgan o'quvchilar uzoq davom etadigan uzluksiz yugurish, kuchli taranglashish, uzluksiz sakrashlar va boshqa tez harakatlanishlarga chegara qo'yish bilan qatnashishlari mumkin. Darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladigan o'yinlarga o'quvchilar ixtiyoriy ravishda jalb qilinadi. O'qituvchilar, tarbiyachilar, yetakchilar va katta sinf o'quvchilari o'yinni tayyorlashga va o'tkazishga rahbarlik qiladilar.

Harakatli o'yinlarni sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni umumjismoniy rivojlanish, jismoniy tarbiya darslarida materiallarini mustahkamlash va takomilashtirishda, shuningdek, «Alpomish» va «Barchinoy» test me'yori normativlarini to'shishga tayyorlash va egallash uchun zarur bo'lgan sifat malakalarini tarbiyalashga yordam beradi.

Bundan tashqari, ular umumiy tarbiyaviy vazifalarga yordam beradi: o'qituvchiga, yetakchiga o'zlarining bolalarini yaxshilab bilib olishiga imkoniyat beradi, bolalarda jasurlikni, e'chillikni, o'rtoqchilikni, uyushqoqlikni tashkiliylikni va hamjihatligini ta'minlaydi.

Tanaffus vaqtlarda o'yinlar o'tkazish tarbiyaviy va gigiyenik jihatdan katta ahamiyatga egadir. Uzoq davom etgan statik holatdan va sinfda qizg'in ishdan yoki darsdan keyin (ayniqsa, kichik maktab yoshidagi bolalar uchun) o'quvchilar faol dam olishlari zarur.

Bolalarda harakatli o'yin ijobiy ruhiy kechinmalarni keltirib chiqaradi, ularning harakat faolligini kuchaytiradi. O'yinchilarda shunday asab markazlarini qo'zg'atadiki, ular sinfda o'tkazilgan mashg'ulotda tormozlanib qolganligi hisobga olinadi. Bunday asab markazlarini ishlashga o'tishi, o'quvchilarni yaxshi dam olishga va keyingi darslarda o'quv materiallarini engilgina qabul qilishiga imkon beradi.

Tanaffus vaqtlarida o'tkazilishi tavsiya qilingan o'yinlar bilan jismoniy tarbiya o'qituvchisi, o'qituvchilarni, yetakchilarni o'quvchilarga tanishtiradi.

O'quvchilar yozda maktab yonidagi maydonchada, qishda esa yaxshilab shamollatilgan s'ort zalida va keng koridorlarda o'tkaziladi. Chunki tanaffus 'aytida har xil sinflardan o'quvchilar yig'iladilar shuning uchun tanaffusda o'tkaziladigan o'yinlar mazmuni jihatidan juda sodda va har xil yoshdagi o'quvchilarning qo'lidan keladigan hamda qisqa muddatli bo'lishi shart.

XULOSA

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Ushbu Konsepsiya ham xuddi shu maqsadda, shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga yo'naltirilgan.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Tarbiyaviy ishlar huquq-tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, Davlat va nodavlat jamg'armalar, qo'mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Darsdan tashqari vaqtlarda quvnoq o'yinlar o'rgatish ularni chinqitirish sog'lom voyaga yetishida har – xil qiziqarli o'yinlar o'tkazish chaqqonlikni oshirish salomatlik sport bayramlarini tashkillash va o'tkazish ochiq havoda turli estafetalar tashkillash va ularni charchatib qo'ymaslik uchun qisqa o'yinlarni o'tkazish. Bolalarni chiniqtirish to'g'ri olib borilganda bolada asta – sekin atrof muhitning noqulay ta'siri eng avvalo issiqlab ketish va sovuq qotishga bardosh berish qobiliyatini yaratish.

Darsdan tashqari vaqtda o'quvchilar bilan o'tkaziladigan harakatli o'yinlar sog'lomlashtirish vazifasini yechishga yordam berishi kerak. Salomatlik holati bo'yicha 1 va 2 tibbiy guruhlariga kiritilgan, o'quv-chilar o'yinni barcha turlari bilan shug'ullanishga qo'yiladi. Yurak bilan kasallangan asab sistemasi buzilgan o'quvchilar uzoq davom etadigan uzluksiz yugurish, kuchli taranglashish, uzluksiz sakrashlar va boshqa tez harakatlanishlarga chegara qo'yish bilan qatnashishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. «O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» – Toshkent: Sharq, 1997-65 b.
2. Karimov I.A. «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat». Toshkent: O'zbekiston 1992-62 b.
3. Jo'rayev A.J. Tarbiyaviy darslarni o'tish. T.: "O'qituvchi", 1994..
4. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. T.: 1996 y.«Axloq-odobga oid hadis namunalari». – Toshkent: Fan, 1990, – 72 b.
5. A.Avloniy. «Turkiy Guliston yoxud axloq» (nashrga tayyorlovchi Xoliqov L.) – Toshkent: O'qituvchi, 1992. 160 b.
6. Inomova K.M. «Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi» –Toshkent: Fan, 1999, – 151 b.
7. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T.: "O'qituvchi", 1995.
8. Ochilova M. Ochilova N. «O'qituvchi odobi». – Toshkent: O'qituvchi, 1993\7. – 136 b.